

Toshkent haqiqati

1928-yil 11-dekabrda asos solingan

[@haqiqatonline_24](#)
[Haqiqat online](#)
[haqiqatonline_](#)
**Viloyat
ijtimoiy-siyosiy
gazetasi**
**2026-yil
14-yanvar
CHORSHANBA
№ 4 (13865)**

Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchlik posboni!

MAMLAKATIMIZ HARBIY XAVFSIZLIGI VA MUDOFAASINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR VAZIFALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi, Vazirlar Mahkamasi a'zolari, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlari, harbiy okruglar qo'mondonlari, harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari, boshqa idoralar va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

O'tgan yillarda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Milliy armiyamiz zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik darajasi izchil oshirib borilmoqda, mudofaa sanoatining salohiyati mustahkamlanmoqda.

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi taktik usullar joriy etilib, mashg'ulotlar soni va shiddati 1,5 barobarga oshirildi, uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalari va mutaxassislar tayyorlash markazlari tashkil etildi.

Armiyani raqamlashtirish bo'yicha boshlangan ishlar natijasida axborot xavfsizligi, boshqaruv va ko'rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada oshdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan harbiy ta'lim tizimi tubdan yangilandi, malakali profes-

sor-o'qituvchi va instruktorlardan iborat Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or raqamli texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellektga asoslangan va zamonaviy baholash tizimlari joriy etilgan harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yig'ilishda mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash, mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Turli mintaqaviy mojarolar kengayib, qurollanish poygasi avj olayotgani, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, xalqaro huquq normalari va xalqaro diplomatiya zaiflashib borayotgani qayd etildi.

(Davomi 2-sahifada) ➤



Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari korxonada amalga oshirilgan keng ko'lamli modernizatsiya natijalari hamda uning yangi yuqori texnologik bo'linmalari faoliyati bilan tanishdi.

Zavod negizida MDH va mintaqamizda yagona bo'lgan "Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish markazi ishga tushirilgan.


Markaz Fransiyaning "Airbus" kompaniyasi tomonidan rasmiy sertifikatlangan o'tkazilgan bo'lib, ishlab chiqarish yuqori saviyada tashkil etilgani, xalqaro standartlar va ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlangan. Bu yerda G'arb aviatsiyasining zamonaviy modellari, shu jumladan, H-125, H-215 va H-130 rusumli vertolyotlar uchun servis va ta'mirlash ishlarining to'liq zanjiri yo'lga qo'yilgan.

Markaz O'zbekistonni "Airbus" vertolyotlariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ekspluatatsiya qilish bo'yicha muhim mintaqaviy xabga aylanirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz yetakchisi markaz imkoniyatlari bilan tanishdi va mutaxassislar bilan muloqot qildi.

Shu yerning o'zida Prezidentimizga zavodning Su-25 harbiy samolyotlarini kapital ta'mirlash va chuqur modernizatsiya qilish bo'yicha yangilangan sexlari taqdimot qilindi. Ilg'or texnologiyalarni joriy qilish hisobiga endilikda korxonada texnikani zamonaviy navigatsiya tizimlari, tungi ko'rish qurilmalari va bortdagi o'zini himoya qilish komplekslari bilan jihozlash ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashrif yakunida mamlakatimiz mudofaa sanoati salohiyatini yanada mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar berdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatidagi Maxsus operatsiyalar kuchlari poligoni bilan tanishdi.



Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi yillarda Mudofaa vazirligi qo'shinlaridagi barcha dala o'quv maydonlari, harbiy qism va muassasalarda modernizatsiya ishlari olib borilib, ular xalqaro standartlarga moslashtirildi.

Maxsus bo'linmalarni samarali tayyorlash maqsadida xalqaro tajriba va qo'shinlarni tayyorlashning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olib tashkil etilgan Maxsus operatsiyalar kuchlarining yangi poligoni mazkur ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Poligon obyektlarida shaxsiy



tarkibning jangovar ko'nikmalarini takomillashtirish, tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali yo'lga qo'yish hamda ma'naviy-ruhiy barqarorligini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari bu yerdagi jangovar va maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil qilishning yangi usullari bilan tanishdi. Qurolli Kuchlar bo'linmalari bilan o'tkazilayotgan mashqlarning faol bosqichini kuzatdi.

O'quv davomida turli qo'shinlarga mansub bo'linmalarning jangovar imkoniyatlari hamda ularning birgalikdagi harakatlarning muvofiqlashganlik darajasi, shuningdek, qo'shinlar va qurol-yarog'ni boshqarishning yangi raqamli tizimlari namoyish etildi.

Turli jangovar operatsiyalarni o'tkazishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan samarali foydalanish usullari, shuningdek, turli xil o'quv-jangovar vazifalarni bajarish jarayonida ar-

bul qilish ko'nikmalari va boshqaruv mahorati darajasi, shuningdek, harbiy xizmatchilarning tez o'zgarib borayotgan jangovar vaziyat sharoitida jang maydonida zamonaviy qurol-yarog' va texnikani samarali qo'llash bo'yicha kasbiy mahoratini baholashga alohida e'tibor qaratildi.

O'quv yakunida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni bo'linmalarining tayyorgarligi va ularning birgalikdagi harakatlari erishilgan uyg'unlik darajasini yuqori baholadi.

Davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarning qo'mondonlik tarkibi bilan bo'lgan suhbatda dunyoda xavfsizlikka tahdidlar avj olayotgan bugungi tahlikali kunlarda Qurolli Kuchlarimiz



salohiyatini yanada mustahkamlash, xalq va armiya birdamligini ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash harbiy sohadagi islohotlarning o'zagini tashkil etishi kerakligini ta'kidladi.

tillariya, aviatsiya, havo hujumidan mudofaa va quruqlikdagi qo'shinlarning birgalikdagi harakatlari ko'rsatildi.

Bunda kichik komandirlarning zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil qaror qo-

Янги бино, янги имкониятлар



Қибрай туманида Мудофаа ишлари бўлимининг биноси мукамал таъмирдан чиқарилиб, фойдаланишга топширилди. Шу муносабат билан ўтказилган тадбирда Мудофаа вазирлиги, вилоят ҳамда туман ҳокимлиги мутасаддилари, соҳа масъуллари ва жамоатчилик вакиллари иштирок этишди.

▼ Тухфа

Реконструкция ишлари давомида бино тўлиқ янгиланиб, унинг ички ва ташқи қиёфаси зamonaviy меъморий талабларга мослаштирилди. Хизмат ва иш хоналари жиҳозланиб, ходимлар ҳамда ҳарбий хизматга қақирилувчилар учун барча зарур шaroitлар яратилди. Шунингдек, бўлимининг моддий-техник базаси мус-

таҳкамланиб, зamonaviy ахборот-коммуникация ва техник воситалар билан таъминланди.

Тошкент туманида ҳам Мудофаа ишлари бўлимининг янги маъмурий биноси фойдаланишга топширилди.

Янги бино зamonaviy лойиҳа асосида барпо этилган бўлиб, ходимлар учун қулай

меҳнат шaroiti, ташриф буюрувчилар учун эса очик ва шaффоф муҳит яратилган. Бунда хизмат хоналари, қабул жойлари ҳамда техник таъминот тизимлари бугунги кун талабларига мос ҳолда жиҳозланган.

Бу ишoтлар ҳудуд инфра-тузилмасини янада ривожлан-



тириш, фуқароларга кўрсатиладиган хизматлар сифатини ошириш ҳамда мудофаа соҳасидаги ташкилий ишлар сама-

радорлигини таъминлашга қаратилган.

**Тошкент вилояти ҳокимлиги
Ахборот хизмати**

MAMLAKATIMIZ HARBIY XAVFSIZLIGI VA MUDOFAASINI YANADA MUSTAHKAMLASHNING USTUVOR VAZIFALARI MUHOKAMA QILINDI

– Bir narsani tushunib olish zarur. Zamonaviy urush tabiati tubdan o'zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g'alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun'iy intellekt, raqamli boshqaruv, uzoq masofaga yuqori aniqlikda zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim asosida olib borilmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu bois, tinchlik va xotirjamlik eng qimmat boylikka aylanayotganini bir daqiq ham unutmaslik lozimligi ta'kidlandi. Bu boylikni asrab-avaylash uchun esa har bir soha va tarmoq xavf-xatarlarga oldindan javob qaytarish bo'yicha "proaktiv ish rejimi"ga o'tishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

Oliy Bosh Qo'mondondan kelgusi istiqbolga mo'ljallangan eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga ustuvor e'tibor qaratiladi.

– Shuni unutmaslik kerakki, harbiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish armiyaning yangi qiyofasini shakllantirishning asosiy shartidir, – dedi Prezident.

Muddatli harbiy xizmat – faqat jismoniy va harbiy tayyorgarlik emas, balki yoshlarimiz jamiyatda mustahkam o'rnini topishi uchun ularni mehnat bozoriga va mustaqil kasbga tayyorlash bosqichi sifatida tashkil etilishi zarurligi qayd etildi.

Jumladan, armiyada yoshlar kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Harbiy qismlardagi asosiy yo'nalish va mutaxassisliklardan kelib chiqib, askarlarni kasbga tayyorlash bo'yicha 3-6 oylik dasturlar ishlab chiqiladi.

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Dasturni yakunlagan askarlar malaka imtihonidan o'tkazilib, ularga kasb sertifikatini beriladi.

Har yili 5 ming askar saralab olinib, "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" dasturlari doirasida o'qitiladi.

Askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlaydi.

Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatini olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga kontraktga kirsas, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi.

Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatini 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballarga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususiylar sektorda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab beriladi.

– Bir so'z bilan aytganda, "muddatli harbiy xizmatni o'tash – yoshlar uchun muvaffaqiyat yo'li"ga aylanishi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Muhandislik-texnika, kiberxavfsizlik va axborot xurujlariga qarshi kurashish sohalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash eng muhim masala ekanini ta'kidlandi. Shu bois,

muhandislik-texnik yo'nalishdagi harbiy-ilmiy bazani mustahkamlash, joylarda harbiy texnoparklar tashkil etish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini yanada mustahkamlash bilan birga, ularning ma'naviy olamini ham muntazam boyitib borishni zamonning o'zi talab etmoqda.

Bunda kitobxonlik muhim o'rin tutadi. Shu bois, joriy yilda barcha harbiy qism va muassasalar jami 1 million nusxadagi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiyga yo'naltirilgan maktab-litsey o'quvchilari, muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlar o'rtasida Oliy Bosh Qo'mondondan sovrini uchun kitobxonlik tanlovi yo'lga qo'yiladi. Okrug, qo'mondonlik, vazirlik, Oliy Bosh Qo'mondondan tanlovlarida g'olib va sovrindor bo'lgan askarlarning muddatli harbiy xizmati bir oyga qisqartirib beriladi.

Har yili harbiy xizmatchilar o'rtasida ko'pkurash, qo'l jangi, og'ir atletika kabi sportning 10 dan ortiq an'anaviy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilmoqda. Endi joriy yildan boshlab kibersport, dron va robot texnologiyalari kabi zamonaviy sport turlari bo'yicha uch bosqichli musobaqalar tashkil etiladi.

– Mintaqaviy va global vaziyatni doimiy tahlil qilib borish, milliy armiyamizning salohiyatini mustahkamlash – bugungi kun talabi. O'zbekiston armiyasi xalq himoyasiga doimo tayyor turishi, buning uchun tezkor, yuqori texnologiyali, yangi jang sharoitlariga mos bo'lishi kerak, – dedi Prezident.

Shu sababli, qo'shinlarni sun'iy intellekt asosidagi robotlashgan majmualar va uchuvchisiz tizimlar, yangi harbiy texnika,

zamonaviy qurol-aslaha, razvedka vositalari bilan jihozlashga alohida e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz mudofaa san'atini yanada rivojlantirish, soha korxonalarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerakligini qayd etdi.

Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mutasaddilarga shaxsga doir ma'lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash topshirildi.

– Harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash, ularning oila a'zolari va harbiy pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish doimo diqqat-e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur, – dedi Prezidentimiz va bu borada katta yangiliklarni e'lon qildi.

Xususan, 1-apreldan boshlab Mudofaa vazirligi ofitserlariga ko'p yillik xizmati uchun ustama miqdori 2 karra oshiriladi. Kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik maoshi 10 foizga ko'paytiriladi.

Hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi va bo'limlarining harbiy bo'lmagan xizmatchilarini oyligi bu yil 20 foizga, kelasi yili yana 50 foizga oshiriladi.

Qurolli Kuchlar safida 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdori 75 foizdan 100 foizga yetkaziladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun uy-joy qurilishi kengaytiriladi.

Mas'ullarga harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minotini belgilaydigan qonun loyihasini

ishlab chiqib, parlamentga kiritish topshirildi.

Zamonaviy xavf va tahdidlarning mazmuni ham, ko'lami ham kundan kunga o'zgarib borayotgani, mudofaa va xavfsizlik sohasi oldiga katta vazifalar qo'yilayotganini inobatga olib, davlatimiz rahbari sakkiz yil oldin qabul qilingan Mudofaa doktrinasi hamda 1997 yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish vaqti kelganini ko'rsatib o'tdi.

Yangi Mudofaa doktrinasi mamlakatimizni hech qaysi harbiy blogga qo'shilmaslik maqomini saqlab qolishini, ko'p tomonlama diplomatiyaga tayanishda davom etishini, yuqori texnologiyalarga asoslangan strategiya, harbiy mustaqillik va mintaqaviy barqarorlik yo'nalishida rivojlanishini ta'minlashi lozimligi ta'kidlandi.

– Umuman, yangi doktrina armiyani texnologik yangilash va ilg'or harbiy yechimlarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari yig'ilish yakunida Qurolli Kuchlarimizning jasur askar va serjantlari, ofitser va generallari, faxriylari, ularning oila a'zolari va yaqinlarini O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy tabrikladi.

– Sizlarning jasoratingiz, qasamyodga sadoqatingiz, el-yurt himoyasi yo'lidagi fidoyiingiz bilan butun xalqimiz faxrlanadi. G'ozal yurtimizda tinchlik-osoyishtalik va hamjihatlik doimo hukm sursin, jonajon Vatanimiz yanada mustahkam va barqaror bo'lsin! – dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda mudofaa vaziri, harbiy okrug qo'mondonlari va boshqa ma'sullarning hisobot hamda takliflari eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq shahridagi texnoparkka tashrif buyurib, mudofaa sanoati korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Bu yerda zirhli va maxsus texnikalar hamda ilg'or funksional imkoniyatlari va texnik xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir necha turdagi masofadan boshqariladigan jangovar modullarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Ushbu yechimlar harakatlanuvchi va turg'un nishonlarga, shu jumladan, ko'rinish cheklangan sharoitlarda o't ochishni ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan boshqaruv, barqarorlashtirish, optik va akustik kuzatuv tizimlari, shuningdek, zamonaviy nishonga olish vositalari bilan jihozlangan.

Davlatimiz rahbariga asosiy butlovchi qismlarni yig'ish, optik-elektron va barqarorlashtirish tizimlarini o'rnatish, dasturiy sozlash va germetiklikni nazorat qilish, qurol-aslahalarni integratsiyalash va kompleks sinovlarni o'z ichiga olgan ishlab chiqarish bosqichlari haqida ma'lumot berildi. Yakuniy bosqichda tayyor modullar yengil zirhli texnika namunalari o'rnatiladi va dala sharoitida tekshiriladi.

Jangovar modullar turli platformalar, jumladan, yengil zirhli texnika, maxsus avtomobillar, katerlar va zirhli transportyorlarni jihozlash uchun mo'ljallangan.

Loyiha bir qator xorijiy hamkorlar bilan birgalikda yurtimizning tegishli idoralari va sanoat korxonalarida ishlab chiqarilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimiz mudofaa sanoati korxonalarda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, ish o'rinlarini yaratish, o'z sanoat va texnologik bazasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari mahsulotlarning sifati va ishonchligiga doir talablarga qat'iy amal qilish, mahalliyashtirishni izchil kengaytirish, muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish muhimligini ta'kidlab, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

“Самаробод”нинг юмшоқ ўйинчоқлари

Бугунги кунда жойларда маҳалла банкирлари томонидан берилган маслаҳат, йўл-йўриқ ва молиявий кўмак орқали кўплаб ишсиз фуқаролар ўз фаолиятини бошлашга куч ва ишонч топмоқда. Бу орқали маҳаллаларда янги тadbirkorлар сафи кенгайиб, аҳолининг бандлиги таъминланмоқда.

▼ Оилавий корхона



Паркент туманидаги “Самаробод” маҳалласида жойлашган “Nuxriddin Zilola plyus” оилавий корхонасида болалар учун юмшоқ ўйинчоқлар ишлаб чиқарилади. Корхона 2022 йилда Зилола Холтаева томонидан ташкил этилган.

Тadbirkor бу ишга тасодифан кириб келмаган. У аввал юмшоқ ўйинчоқ тикиши цехида ишлаб, тажриба ортирган. Вақти келиб устозидан дуо олиб, ўзи мустақил фаолиятини бошлади. Дастлаб 2 дона ўйинчоқ тикиб, бозорга олиб чиқди. Кутилмаганда маҳсулоти тез сотилди. Ортидан 30, кейин эса 100 та буюртма келди.

Олти ой давомида якка тартибда ишлаган Зилола буюртмаларга улгура олмай, маҳалладаги ишсиз аёлларни жалб этишга қарор қилди. Натижада 50 нафар аёл ўзи уйда ўтирган ҳолда, касаначилик асоси-

да иш билан таъминланди. Бугунги кунда оилавий корхонада бир кунда 2 мингтага яқин юмшоқ ўйинчоқ тикилмоқда.

– Мустақил иш бошлаган кунларимни эсласам, ҳали ҳам ҳаяжонга тушаман, – дейди З.Холтаева. – Дастлаб моддий имкониятним жуда чекланган эди – озгина мато, битта тикув машинаси ва катта оғуш. Қийинчиликлар кўп бўлди: маблағ етишмаслиги, тушқунлик, чарчоқ, баъзан ишонч сўнган пайтлар ҳам бўлган. Аммо интилиш, ҳалол меҳнат ва сабр, албатта, самара берар экан. Буюртмалар кўпайгани



мени кучли қилди. Бугун эса нафақат ўзим, балки яна ўнлаб аёлларни шу иш орқали уйда ўтирган ҳолда даромад топаётганини кўриб, очиги қувонаман. Фикримча, муваффақиятнинг сири фақат катта сарможада эмас, балки қатъият ва иштиёқда. Агар инсон кўркмасдан илк қадамни қўйса, меҳнатдан қочмаса, имконият эшиклари очилади. Энг муҳими – ўзинга ишониш ва бошлаган ишингни охиригача олиб бориш.

Тadbirkorning айтишича, дастлаб ўйинчоқлар қўлда бичилган. Буюртмалар кўпайгач, электр қайчиға ўтишган. Аммо бу усулда мато кўп исроф бўларди. Муаммони бартараф этиш учун 3 та лазер ёрдамида кесувчи замонавий ускуна харид қилинди. Ҳозирда барча бичиш ишлари айнан шу ускуналар орқали амалга оширилмоқда. Ўйинчоқлар дизайнини эса Зилола турмуш ўртоғи билан бирга яратлади.

Бугунга келиб, оилавий корхона “Roodwell” компанияси ва “Magic city” парки билан йирик шартнома имзолаган.

Тайёр ўйинчоқларнинг катта қисми уларга етказиб берилади. Шунингдек, турли корхона ва ташиқлотлар учун логотип ҳамда эмблемалар туширилган махсус ўйинчоқлар ҳам буюртма асосида тайёрланади.

Ҳозирда барча жараён уй шaroitида бажарилмоқда. Бироқ буюртмалар ҳажми ортаётгани сабабли алоҳида цехга эҳтиёж сезилмоқда. Бу эса келгусида яна янги иш ўринлари яратилиши ва кўплаб аёллар бандлиги таъминланишини аңлатади.

НОЗИМА РАСУЛОВА,
“Тошкент ҳақиқати” мухбири
Меҳрибдин ИБРАГИМОВ
олган суратлар

▼ Ажаб савдолар

Ижтимоий тармоқларда “Чорсу” бозоридаги бир лавҳа жиддий муҳокама ва норозиликларга сабаб бўлмоқда. “Чекиш учун жой”-ни билдирувчи белги инглиз, рус ва хитой тилларида ёзиб қўйилди. Аммо... ўзбекча йўқ.

Нега тилимизни “қичитасиз?”

Уни кўриб, “Ойда-йилда бир бозор, унияма ёмғир бузар”, деган отасўз беихтиёр хаёлга келади. Худдики, куёш чарақлаб турган пайтда ногаҳон чақмоқ чаққан каби...

Чунки гап оддий бозор ҳақида эмас. Бу – пойтахтимиз маркази, қадим шаҳар-созлигимиз кўзгуси бўлган жой – “Чорсу”.

Энди ўзингиз бир фикрлаб кўринг. “Чорсу”нинг асосий қатлами – ўзбеклар. Сотувчи ҳам, оловчи ҳам, чекувчи ҳам. Табиий савол туғилади: Нега ёзув ўзбек тилида эмас? Бу давлат тилини камситишни ёки ўзга тилларга кўрсатилаётган ҳурматми?

Юртимизда туризм ривожланыпти, сайёҳлар оқими ортапти – булар қувонарли. Аммо дунёнинг турли мамлакатларидан келаётган сайёҳлар ўз тилимизга бўлган бепарво-

лигимизни кўриб, қулишмайди?

Ривожланган мамлакатларда тилга муносабат давлат сиёсати даражасида.

Бизда-чи? Тескариси. Ёки “Уйдаги гап бозорга тўғри келмас” деганлари шумикан?

“Тил тиғи қилич тиғидан ўткир”, дейишади. Бу ҳолат эса зиёли қатлам юрагини ўртапти. 1989 йилда ўзбек тилига давлат тили мақоми берилди. Ҳар йили 21 октябрда бу сана байрам қилинади. Яқинда ана шу шодиёналарнинг 37 йиллигини нишонлаймиз. Қарийб қирқ йил... Лекин натижа-чи? Тилимиз ҳақиқатан мустақил бўлди? Кўчаларимиз, бозорларимиз, дўконларимиз ажнабий ёзувларга тўла. Нима, тилимиз шунчалик қашшоқми? Нега тилимизни камситасиз, нега тилимизни “қичитасиз?”

“Чорсу”даги реклама –



лоқадилгимизга тугилган ойна. Ойна қанча тиниқ бўлмасин, қора юз қоралиғича кўринади. Абдулла Қаҳҳорнинг оғриқли саволи қулоқда жаранглайди: “Нега кўчада қонда бузганга хуштак чалинади-ю, тилини бузганга ҳеч ким индамайди?”

Муҳаммад Юсуф бежиз ёзмаган:

“Юртини сотмайди бирор отбоқар, сотса зерикқандан зиёли сотар”.

Унутмайлик, ҳар бир ёзув, ҳар бир ишора – тарбия ва ташвиқот. Исҳоқхон Ибрайт айтганидек, ўз тилига садоқат – Ватаний иш.

Тил – миллиятнинг қони, рамзи, виждони ва юраги. Уни ҳурматлаш – ўзимизни ҳурматлашдир. Эҳтиёт бўлайлик. Зеро, тилининг ҳам уволли бор.

Зикрилла МУҲАММАД,
“Тошкент ҳақиқати”
мухбири

ЕНГИЛМАС ҚУДРАТ



Асрлар давомида буюк аждодларимиз ва миллий қаҳрамонларимизнинг жасоратларини тарғиб қилиш, ҳар қандай душман устидан ғолиб келишга асосланган жанговар аъёнларимизни кенг ёйиш бугунги кунда Қуролли Кучларимиз фаолиятида муҳим ва аҳамиятли вазифа бўлиб қолмоқда.

Халққа руҳий озуқа бера оладиган куч бу – унинг ўз шонли тарихи, фольклор асарлари эканини ҳисобга олсак, уларни чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали унутилиб бораётган жанговар руҳ ва аъёнларни янада жонлантириш имконияти пайдо бўлади.

Халқ оғзаки ижодининг шундай нодир намуналари борки, уларда армиямизнинг тарихий қиёфасини, туркий жангчиларимизнинг сўнмас шижоатини, аёвсиз курашларда орттирилган тажриба ва маҳорат намуналарини кўриш мумкин.

▼ Тадқиқот

“ОҚШОМ ЮРАР ШАБГИР ТОРТИБ...”

Халқ достонларида ўтмишда душманга қўтилмаганда зарба бериб, уни ваҳимага солувчи махсус куч ҳисобланган “шабгир”лар ҳақида қизиқарли маълумотлар мавжуд. Ёвқур шабгирлар асосан тунда, кўқисдан ҳужумга ўтиб душманини яқсон қилишган. Улар одатда ўзини сездирмасдан, хуфийна ҳаракат қилган. “Алломиш” достонида бу ҳақда шундай дейилади:

*Бедовларга қамчи чаптиб,
Оқиом юрар шабгир тортиб,
Жўнади қирқ икки сардор,
Ҳар қайси мисли аждаҳо.*

Достонларда учрайдиган яна бир тактик усул бу – ҳам сонли қўшинни душманга кўп кўрсатиш ҳийласидир.

“Алибек билан Болибек” достонида тасвирланишича, шахзоданинг қўшини сон жиҳатидан оз бўлса-да, улар тоғда қуюқ ва улкан чанг ҳосил қилиб, душманга қўрқув солади. Натижада душман қўшини орасида ваҳима ва саросима уйғонади:

*Ўзбек лашкарининг бари бўридир,
Майдонга кирганда эрининг эридир.
Энди тананг сувсиз чўлда чирийдир,
Бизнинг қўшин бевақт келган ўхшайдир.*

Тарихий манбаларда Соҳибқирон Амир Темури ҳам шу усулдан фойдаланиб, лашкари сонини бўрттириб кўрсатиш учун тунда бир қанча ерда гулхан, машъала ёқтиргани, бу усул “Арғай ўт” (мўғулча арға – алдаш, туркча – ўт, олов) деб номланиши келтириб ўтилади.

Шунингдек, достонларда разведка ва турли ҳийлакор ҳужумларни ифодаловчи чопқун, чоповул, туркот, татовул, илғор, тил, оқинчи, ўқруқ, тутгоқ, езақ каби атамалар ҳам тилга олинади.

ТЕЗ ТИББИЙ ЁРДАМ, ЙЎЛХАЛТА

Бугунги замонавий армиямизда жангчининг қурол-яроғлари асосан пишиқ камарга таяниб жойлаштирилади. Жангчиларда аввало ўзига, сўнгра сафдошига

тезкор тиббий ёрдам кўрсатиш кўникмалари шакллантирилади. “Юсуф билан Аҳмад” достонида ҳам қуролларнинг белдаги камарга осилиши, ўз-ўзига тиббий хизмат кўрсатиш жараёнлари батафсил тасвирланган: “*Ашурбек сардор салласини йиртиб, икки кам ўттиз ярасига пахта қўйиб, дастори билан маҳкам чандиклаб боғлаб, либосларини икки эғнига ташлаб, устидан советини босиб, қиличини белига боғлаб, қалқонини кифтига ташлаб, найзага суяниб эгарни ушлаб, “оҳ-воҳ” деб отига миниб, йигитларига бош бўлиб жангга қиради*”.

Бугунги армиямиздаги йўлхалта ҳам жанговар эртақлардан тортиб, достонларгача қуролланишнинг бир қисmini ташкил этади. Бу деталь “Юсуф билан Аҳмад” достонида ҳам учрайди. Қўршовда қолган Ғўзалшоҳ Юсуф билан Аҳмад ҳузурига элчи юбориш учун Рустам исмли жангчисини сафарга ҳозирлайди. Унга йўл озиги сифатида толқон, туршак, қурут бериб, меҳтарларга сув солиб, ёв-яроғини шайлаб, хуфтондан сўнг бир дарвозадан чиқариб юборади.

ИЛК ЖАСОРАТ УНСУРЛАРИ

Замонавий армиямизда аскарликнинг илк босқичидан жангга киришигача бўлган даврга қадар шакллантириб бориладиган маълум бир руҳий-психологик босқичлар бор. Достонларда ҳам қаҳрамонларнинг жисман ва маънан улғайиш категориялари, яъни рамзий “ўлик”лик ҳолатидан “қайта тирилиш”гача бўлган давр ётади.

“Китоби дада Қўрқут”да қаҳрамоннинг илк жасорати ҳақида батафсил келтирилади. Ундаги Бамси ўн беш ёшида биринчи бор жасорат намоён қилади. Ваҳоланки, китобда йигитлар ўзларини кўрсата олмагунча уларга ҳатто исм ҳам берилмагани хусусида маълумотлар

учрайди. Алломиш жасоратнинг илк намуналарини етти ёшида, Ғўрўғли ва қирғиз халқ қаҳрамони Манас тўққиз ёшида ўзларининг илк қаҳрамонлигини кўрсатади.

“Юсуф билан Аҳмад” жангномасида етти ёшда мактабга бориб, саводи чиққан боланинг ҳарб ишидан беҳабарлиги отани номусга қўяди. Масалан, достонда Бўзўғлон мактабдан келаётган икки хонзоднинг қимлигини билган:

“Барақалла сизларга, буларни бунча ўқитибсизлар мулла бўлсин деб, ё бир масжидга, ё хонақога хатиб қиламизми? Бизлар сипоҳи кишимиз. Шунча суверат, хати бўлса сипоҳларга бўлади-да, ўзи хат битса, бирое хат битса ўқиса, сипоҳнинг мулла бўлгани шу бўлади. Энди буларга сипоҳлик ўргатинлар: от чопмоқ, ўқ отмоқ, сипар тортмоқ, қилич чопмоқ, ҳам найзадастлик, қирбастлик, суришбозлик, кўп-каримтозлик”, деб ўтиб кетади.



ЖАНГОВАР САҲНАЛАР

Жанг, шубҳасиз ҳар қандай достоннинг кульминацион нуқталарини ташкил этади. Жангда бош қаҳрамон қўшинга илҳом бағишлайди, намуна кўрсатади, аскарларнинг руҳиятини мувозанатга солиб туради.

Лашкар ҳар доим жанговар руҳни қўзғатувчи кучли чорловлардан илҳом олган. “Алибек билан Болибек” достонида қаҳрамонларнинг жанголдиги ўз-ўзига бераётган далда ва тасаллиларига ғувоҳ бўламиз: “*Асло ваҳми-тарс кўнгулга келтирманг, майдонда душман билан савашиб, таллашиб ўлсак, бизларга қандай ғанимат. Охири одам бор, ўлим бор. Бир кун бўлмоқ, бир кун ўлмоқ. Иймони билан ўлган ўлмайди. Иймонли кул ўлмайди, деган. Эй йигитлар, асло ғам еманлар, ўламан деб еойим қилманг*”.

Достонда юрт тақдирига хавф солувчи ҳар қандай ҳолат жангчиларни илондай қўзғатиб, шердай наъра тортиради. “Алибек билан Болибек” достонида Мизробшоҳ от уйнатиб, майдонга қиради ва душман лашкарига қарата шундай хитоб қилади:

“Ў Пулатишхонинг лашкари, бу кун майдонга мен келдим, зийитмадим дема! Қани мардинга борми, кел энди, ҳариф келди!”

У бир киши билан эмас, керак бўлса бутун қўшин билан курашишга тайёрлигини ишонч билан айтади:

*Бошимда дубулга, белда беллиги,
От, анжомнинг йўқдир сира камлиги,
Ўттиз кўрқса, келсин қирқи, эллиги,
Ким талабдор бўлса келсин майдонга.*

ҚАДИМИЙ ОРКЕСТР ВА БАЙРОҚ

Достонларда доимий равишда учрайдиган кўринишлардан яна бири қўшиннинг жанговар мусиқа содалари остида



юриш қилишидир. Бу ҳолат ритм асосида қўшиннинг жанг майдонидаги ҳаракатини тартибга солиб турган. “Юсуф ва Аҳмад” достонида: “*Сарбоз уришади қарнай наҳрига...*” манзараси берилса, “Алломиш”

достонида: “*Ўзбеклар устига лашкар қилади, Намойишга қарнай-сурнай қўяди...*” жумлалари жангда мусиқий жанговарлик темпини намоён қилади.

“Алибек билан Болибек” достонидаги жанг саҳналарида ҳарбий оркестрнинг қадимий кўринишларига оид бўлган **замзама, добул, кус, шикори дабилбон** каби қатор терминлар фаол қўлланилиб, уларнинг ҳар бири жангда муҳим сигналлар бериш вазифасини бажарган.

Бугунги замонавий армиямизда ҳам байроқ – давлатнинг рамзи, қарнай-сурнай эса ҳарбий оркестр гуруҳлари кўринишида яшаб келмоқда.

ФАҲРИЙ УНВОНЛАР

“Қўтадғу билиг”да жангда мардлик ва қаҳрамонлик кўрсатган аскарлар, ботирлар тўнга (йўлбарс), тўнга алп (шавкатли баҳодир), сўкман (душман сафини ёрувчи) сингари унвонлар билан шарафлангани қайд этилади. Кўк турк хоқонлигида навқирон, ёш жангчилардан тўзилган қўшин Ўғлон термини билан аталиб, уларнинг сони етти-ўн минг атрофида бўлган. Ҳар бир жангчининг жисмоний етуқлиги ва жанговар салоҳияти индивидуал тарзда баҳоланиб, баҳодир, мард, паҳлавон аскарларга алп, алпағу унвонлари берилган. Ҳатто моҳир ўқ отувчи, яъни мерганлар ҳам алп унвонига сазовор бўлишган.

Достонларда жазойил, исфаҳон қиличи, пўлат қалқон, гулгун ёлули найза каби қурол-яроғ турлари, “кировка” (совут), “чоройна”, “бувунчок” – яъни мустаҳкам камар, шунингдек, “жеба” деб аталувчи қалқон, “табар” деб номланган ярим доира шаклидаги болтасимон яроғ, жавшан (симдан тўқилган совут) каби воситаларни ҳам кўплаб ўринларда учратиш мумкин.

ЖАНГОВАР ИСМ

Қадимда қаҳрамонларнинг бирор устун белгиси унинг иккинчи номи, лақаби сифатида аталиб, бу қоида бугунги армиямиз сафларида ҳам қисман сақланиб қолган. Профессор Насимхон Раҳмонов қадимги турклардаги жанговар исмнинг пайдо бўлишини тадқиқ қилар экан, Енисей ёдгорликларида жанговар ном танлаш аъёнасига эътибор қаратади.

“Ар атим Яш Ақ баш ман (Менинг жанговар исмим Ёш Оқ Бошдир). Ар атим Яруқ тигин (Менинг жанговар исмим Яруқ тигин).”

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, фольклор асарлари халқнинг ичиде, тилида, юрагиде асрлар оша яшаб келмоқда. Биз унга қанча ақинлашсак шунчалик кучли бўламиз. Бу куч ва жасорат нафақат миллий армиямиз учун, балки юрт ҳимоясини ўз бўйнига олган ҳар биримиз учун суе ва ҳаводек зарурдир.

Бобур ЭЛМУРОДОВ,
филология фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

ЕКОЛОГИК МАДАНИЯТ ҚАНЧАЛИК МУҲИМ?

Bugun ekologik ifloslanish nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligiga ham kuchli tahdid solmoqda. Zavod va transportlardan chiqayotgan tutun, koʻl va ariqlarga tashlanayotgan chiqindilar tufayli havo, suv va tuproq tobora ifloslanib bormoqda.

Afsuski, hali ham baʼzilar: “Bitta mening tashlangan chiqindim bilan havo buzilib qolarmidi?”, deb oʻylashadi. Ammo “kichik” beparvolik ham katta fojialarning boshlanishi boʻlishi mumkin. Chang havo, iflos suv yoki sifatsiz oziq-ovqat organizmni asta-sekin zaharlaydi. Inson yillar davomida havo ifloslangan hududda yashasa, allergiya, bronxit, astma, saraton kasalliklariga chalinadi. Oziq-ovqat va suv sifatining pastligi esa yurak, jigar, buyrak, ichak va asab tizimiga asta-sekin zarar yetkazadi.

▼ Dolzarb mavzu

Bilamizki, bizga eng katta xavf solayotgan zarralardan biri – PM2.5. U chang, tutun va gaz bilan toʻyingan havoda eng koʻp uchraydi va shu darajada kichikki – burnimizdagi tabiiy filtrlar ularni ushlab qololmaydi. Ular oʻpkaga kirib boradi, keyin esa qonga aralashib, immun tizimida yalligʻlanish jarayonlarini keltirib chiqaradi. 2025-yil 6-oktyabrda Toshkent havosida PM2.5 meʼyorida 15 baravar koʻpayib, shaharni dunyo boʻyicha eng iflos havo kuzatilgan hududga aylantirgani ham bejiz emas. State of Global Air maʼlumotiga koʻra, 2019-yilda PM2.5 ifloslanishi tufayli 4,14 million, 2021-yilda esa tashqi va ichki havo ifloslanishi bois 8,1 million kishi erta vafot etgan. Ushbu

oʻlimlarning 90 foizidan ortigʻi aynan shu mikroskopik zarrachalarning jiddiy taʼsiri bilan bogʻliq ekanini aniqlangan. Shunday boʻlsa-da, kasallik tarqaganda darrov shifokorga yuguramiz-u, ammo nega kasalliklar tobora koʻpayayotganining sabablari haqida oʻylab koʻrmaymiz. Tez charchash, migren, bolalarning nutq yoki aqliy rivojlanishidagi kechikishlar – koʻpincha ekologik omillarning natijasi boʻlishi mumkin. Tabiatni iflos qilayotgan oʻzimizku. Chiqindini oʻzimiz tashlaymiz, nosoz transportdan foydalanamiz, atmosferaga zararli gazlarni chiqarayotgan ham oʻzimiz. Natijada nafaqat tabiat, balki oʻz sogʻligʻimiz ham zarar koʻrmoqda.

Oʻtgan yili mutaxassislar havoni ifloslantiruvchi manbalarni oʻrganib, ularning ulushini foizlarda baholashgan edi. Unga koʻra, isitish tizimlari va energiya manbalari – 28 foizni, transport – 16 foizni, sanoat korxonalari – 13 foizni, shamol orqali koʻtariladigan chang va yer changi esa 36 foizni tashkil etgan. Demak, havo sifatining yomonlashuvi faqat birgina omilga bogʻliq emas – bu bir nechta manbalarning yigʻindisi. Shu bois shahar darajasida tizimli oʻzgarishlar zarur. Istitish tizimlarini modernizatsiya qilish, ekologik transport ulushini oshirish, sanoat korxonalari qatʼiy nazorat qilish, changni kamaytirish choralarini koʻrish orqali havo sifatini yaxshilash mumkin.

Shuningdek, Ekologiya milliy qoʻmitasi sanoat korxonalari uchun yangi ekologik talablar joriy etishni rejalashtirgan – chang va gaz tozalash uskunalarini oʻrnatish, eski qozonxonalarni energiya tejamkor tizimlarga almashtirish, zararli yoqilgʻilardan voz kechish shular jumlasidan. Kelgusi besh yil davomida Toshkent va unga tutash hududlarda 441 gektar yangi yashil zonalar barpo etilishi, “yashil belbogʻ”lar yaratish, yangi qurilishlarda ekologik normalarni majburiy joriy etish – bularning barchasi shaharni ekologik barqaror qilishga qaratilgan. Xulosa bitta, atrof-muhitning ifloslanishi, ayniqsa, havodagi zararli zarrachalarning koʻpayishi

inson salomatligiga sekina, biroq nihoyatda xavfli taʼsir koʻrsatadi. Kasallik birdaniga paydo boʻlgani uchun odamlar uni jiddiy qabul qilmaydi, ammo yillar davomida toʻplangan zarar hayot sifatini pasaytiradi. Hukumat chora koʻrmaydi, lekin bu yetarli emas – har bir fuqaro ekologik masʼuliyatni anglamasa, muammo yechim topmaydi. Demak, sogʻligʻimiz, farzandlarimiz kelajagi va shahar havosining ertangi kuni uchun har birimiz ekologik madaniyatni oshirishga, tabiatni asrashga qaratilgan harakatni oʻzimizdan boshlashimiz zarur. Bu bugunning eng dolzarb vazifasidir.

Nazokat ZIYODULLAYEVA,
Alfraganus universiteti talabasi



▼ Эълон

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF 5-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasi-ning 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori talablariga muvofiq “Angren Bunyod Fayz” MCHJ, “Zangiota obodon” MCHJ, “Ohangaron sanitariya tozalash” MCHJ, “Rahnamo Servis” MCHJ, “Toza Hudud” DM va “Zero Waste” MCHJlar tomonidan Toshkent viloyati hududlarida qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun 2026-yil 1-fevraldan quyidagi tariflar joriy etilmoqda. Qattiq maishiy chiqindilarni toʻplash va olib ketish xizmatlari uchun: – Bir nafar aholi uchun bir oylik toʻlov 9 700 soʻm qoʻshilgan qiymat soligʻi-siz, 10 864 soʻm qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan; – Yuridik shaxslar uchun 1 m³ 86 890 soʻm qoʻshilgan qiymat soligʻisiz, 97 316,8 soʻm qoʻshilgan qiymat soligʻi bilan hisoblanganda.

Пискент тумани ҳоқимлиги туман Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жамияти раиси Комилжон МАМАЖОНОВга волидаи мухтарамаси

ИНОБАТ ҳожи яннинг

вафоти муносабати билан чуқур ҳамдардлик билдиради.

▼ Кўнгил шеваси



Хиргойи

Бой эдим.
Боримни бир жипмайишда
Тасарруф қилдингиз, тасаддуқ.
Юрагим қамашди — ё ноз-у ишва,
Ё “куф-суф” қилдингиз, тасаддуқ.

Билмасдим, кўксимда бир парча чўғми,
Билмасдим, учирсам, зиёни йўқми?
Билмасдим денгизни, саҳрони, тоғни —
Файласуф қилдингиз, тасаддуқ.

Орзусиз кечмади бирор сония,
Дил йўқсил хаёлдан кўтди хайрия.
Беларво ўтаркан, таассуф, дея,
Такаллуф қилдингиз, тасаддуқ.

Дунёда бир менми гулларга мафтун,
Ўзидан норизо, ўзидан мамнун?
Гоҳида Тоҳирман, гоҳида Маҳнун,
Гоҳ Юсуф қилдингиз, тасаддуқ.

Бир бутун қўшинсиз, низо, нифоқсиз —
Мен ўлсам, қолмаси Ватан Широқсиз?
Сиз билан курашдим курул-яроқсиз
Ва мағлуб қилдингиз, тасаддуқ.

Қалтирайди қаршимда январь,
Қўлларингдан тутаман — олов.
Икки ёнда соқчи қайинлар,
Қўшиқ айтиб борамиз яёв.

Елкамга муз ташлайди арча,
Сен қиқирлаб тўқийсан мақол.
Қурашларинга тусидан чарчаб,
Кузатаман қулгини хушхол.

Қалтирайди қаршимда январь...

Муштоқман

Бари чин, ойбарчин, бари чин —
юрагим чиннидек чилпарчин.
Бир парча хатим бор, элтарми
қарлуғоч ё лочин,
қўқарчин?..

Улармас,
зиндонга тушди ғоз,
иқтибос олди-ю, учди боз.
Бир кўнгил ёздим-ай, ёзғириб,
Сен ҳам ёз, сарвиноз, илтимос...

Сен ёзсанг,
Мусаддас — муқаддас,
Сен ёзсанг,

мухаммас — мусаллас,
Сен ёзсанг,
мураббаъ — мураббо,
муфассал,
мусалсал
ёзсанг бас...

Айтдим-ку, ойбарчин, бари чин,
Қўлларим қўлингизни кутар жим,
Мунажжим бисёр-у, топилмас
Кўзимга кўзингиздек мутаржим.

Муштоқман мунчоқдек тилчиға —
шу гулгун, гуногун, гулчиға.
Ишқинингиз элчиси — умидим,
ўлим йўқ, дейдилар, элчиға...

Эл чидар арзимга, тўғри, лек,
тинчимга кўл чўздинг —
ўғридек.
Бир кўрдим, шундан шу сўқирман,
кўркинг кўр қилди-да —
кўргилик...

Бари шу...
Ойбарчин, хатарли
йўлимнинг завқи йўқ айтарли.
Етилган ишқини йитирмай,
васлинга
етмаслик
етарли...

Орзу

То Искандар кўзгусига боқарман — сен кўрингайсан,
Кўзим дарчаларин қаттиқ ёпарман — сен кўрингайсан,
Ўзугимни йитирайман, топарман — сен кўрингайсан,
Майли, шодон, майли, ҳорғин кўрин менга, кўрин, сарвим!

Қўлларимни ёзиб ҳар кун гир айландим — соат бўлдим,
Гоҳи юлқа намат бўлдим, гоҳи минг-мина қават бўлдим,
Пар ўринда ноз уйқунга ботиб турган нўхат бўлдим,
Ҳар на бўлиб кечди умрим, кўрин менга, кўрин, кумрим!

Йўлга тушдим, қолди жаннат, зора, заҳмат ширин, зора...
Хатм қилдим ҳижронингни қатра-қатра, пора-пора,

Бунча тордир, ситамзордир, қаро ғордир бу сайёра,
Булутларни кесди оҳим, кўрин менга, кўрин, моҳим!

Бош эмадингиз, олдим-у бош етти иқлим сари кетдим,
Богда ёмғир бўлди талош, икки қултум хариб этдим,
Кўзларингизда бир томчи ёш — чўкиб ўлдим, шахид кетдим,
Мудом ташна кўнғилим тусар — кўрин менга, кўрин, кавсар!

Дилимнинг тўрида оғриқ, бироқ сендек муҳтараммас,
Маҳкам босай десам — зулмат, ич-ичимдан нур таралмас,
Жонга теғди манов гурбат, бошқа гурбат истарам, бас,
Қуйиб кетсин тоғ-у мардум — кўрин менга, кўрин, дардим!

Январь

Ў! Нақадар ширин сония,
Кўзларингизга кўзим тикарман.
Фарзандимга айтарсан дея,
Томоғингизга алла экарман.

Бу дунёнинг нимаси бор, айт?!!
Гинаси бор, дарди, ҳасрати!

Барчасига боққанча лоқайд,
Сенга улкан севги асрадим.

Дил асрадим, қоронғу кеча
Осмонини ёритар порлоқ.
Сўз асрадим атроқдай ўжар
Ва муқаддас Турон каби пок.

Вазмин руҳим, табиатимга
Йўлатмадим иғвони зинҳор.
Довулларни қамаб ичимга,
Этавердим жаҳлимни инкор.

Буларни қўй,
Январни кузат.
Олпоқ қорда югураб тулпор.
Муз остида дастурхон тузаб,
Қутаётир бизларни баҳор.

Шаҳруёр ШАВКАТ

Кеча ёмғир ёғди. Эҳтимол, уйига қайт-
маган қуролдошларим учун само аза тут-
гандир. Бу ерда ҳамма дўст. Биримиз ко-
мандир, биримиз аскар. Лекин ниятлар
хотис, мақсадлар улғу, вазифа ягона — Ва-
тан ҳимояси!

Уйку йўқ. Сергакмиз. Буйруқни кутяпмиз.
Ҳадемай жанг...

Тунда қиёмат кўпди. Бу газдаларнинг
уруғи кўп экан. Ўзларича тинчлигимизни бу-
зишмоқчи. Токи биз бор эканмиз, юртимиз-
га бир қадам ҳам кириб бўлсан!

Жанг олди ҳаммамиз тирик қайтиш-
га онт ичгандик. Лекин... пешонага ёзил-

— Ҳали, кўрасизлар, геолог бўлиб, қиммат-
ли маъданларни топаман, — дерди Хушвақтов
кулиб.

Билишимча, у онасининг ёлғиз ўғли эди.
Энди бечора оназорнинг ҳоли не кечаркин?

— Ўртоқ катта лейтенант, мен тарихчи
буламан, — дерди Тўхтасинов.

Ўзи ҳам жасорати билан ўчмас из қолдир-
ди. Тарихга айланди. Аҳмедовнинг тўйига қат-
нашгандик. Олти ойча бўлди. Катта сержант
Турсунов фарзандларини яхши ўқишларда
ўқитмоқчи эди.

Эпчил Шомиллов мураббий, қизиқувчан
Тешабоев кончи, оғирқарвон Хуррамов ада-

Аскарлик. Орзуларга тўла давр бу ҳам.
Булар ёшида менинг ҳам орзуларим мўл
эди. Режиссёр бўламан деб, шахарга кетган
эдим. Машаққатларга чидаб, режиссёр ассис-
тенти бўлдим. Кинолар ишлаганмиз. Кейин
эса болалиқдаги яна бир орзуим — ҳарбийлик
бошланди. Эсласа арзирли йўл. Ҳалиям ор-
зуларим осмон! Балки, олам шу билан тирик-
микан? Ниятим бор: қачондир, албатта танти
ўзбек ҳақида энг зўр фильми ишлайман. Ме-
нинг кинопаримда ўзбек бор бўй-басти билан
намоён бўлади.

Ана шундай ширин хаёллар оғушида кў-
рак чўнтагимдаги суратни олдим. Унда икки

бошладим. Лекин чидайман, охиригача
курашаман...

Ўқлар овози тинди. Қуролдошлар мен
томон талпинишарди.

— Ўртоқ, катта лейтенант, бизни қўрқит-
манг, — аскар Иноғомов қафтлари билан бо-
шимни кўтарди. Сув тутди.

— Ахир, тўйимга бош бўлиб бормоқчи
эдингиз-ку!

— Бизни қўрқитма, Чори! Ошна, бироз
сабр қил! — капитан Отабеков ёнимга чўк-
калади. Унинг қўлини қисдим.

“Ғалаба!”

Бу қувончли сас ҳар ёқдан эшитилиб,
қувонч бермоқда эди... Лабимга табассум
инди! Қуёш чарақлаб нур сочар, қушлар
парвоз қиларди. Осмонга термилдим. У
нихоятда гўзал эди!

Фильм тугади. Бир лаҳзалик сукутдан
сўнг зал гўё уйғониб кетгандек қарсақлар
ёмғир мисоли ёғилди. Одамлар ўринлари-
дан туриб олқишларди. Сценарий муалли-
фи — ёш қизни саҳнага тақлиф қилишди.
Унинг қўллари қалтирар, кўзлари тўла ёш.
Микрофонга яқинлашди.

— Бу фильм... — унинг овози титрар эди,
— юртимиз сарҳадларида хизмат қилган
барча ўғлонларга бағишланади.

Залда кимдир пичирлади:

— Жуда таъсирли чиқибди. Гўё ўша жанг-
нинг ичида юргандек бўлдик...

Қиз бир зум тўхтаб, давом этди:

— Аммо бу фильмда бир инсон бор...
уни сиз кўрмадингиз. Лекин мен ҳар кадрда
уни ҳис қилдим.

Зал жимиб қолди.

— У катта лейтенант эди. Чегарада ҳа-
лоқ бўлган. У кино ишлашни орзу қиларди...

— Қиз кўз ёшини яширмади. — У — менинг
отам...

Сукунат. Орқа қаторда ўтирган ҳарбий
либосдаги эркак бош кийимини секин ечди:

— Она қизим, отанг бизнинг дўстимиз
эди. Унинг орзулари ушалибди.

Залда яна қарсақлар янгради. Экранда
охирги ёзув пайдо бўлди: «Чегарада қол-
ган орзулар ҳеч қачон ўлмайди».

...Бир қучоқ гулларни бағрига босиб
залдан ташқарига чиққан қиз беихтиёр ос-
монга боқди. Гўё кимдир уни узоқдан кўриб,
жимгина табассум қилаётгандек эди.

... Осмон эса ўша-ўша — гўзал эди.

Зикрилла МУҲАММАД,
“Тошкент ҳақиқати” муҳбири

ЧЕГАРАДА ҚОЛГАН ОРЗУЛАР

(ҲИКОЯ)

(Катта лейтенант Чори Ражабов хотирасига)

гани бўлар экан. Ёнгинамдаги водийлик
аскар Хушвақтовни ингрок тутди. Қисмдаги
энг хушқақчаги у. Доим ҳаммани қулдириб
юрарди. Утган ҳафта туғилган кунини ни-
шонлагандик. Қувнок кўзларидаги мунгни
кўриб, юрагим эзилди. Қутилмаганда унга
иккинчи ўқ ҳам теғди. Уни отган душмани
бехато урдим. Ёнидагини ҳам.

— Ўзингни қўлга ол, аскар! Ҳозир яранг-
ни боғлайман...

Гапираман деб уни ингрок тутди:

— Ўртоқ кат-та лей-тенант. Он-намга, ўғ-
линг кел-лади, ўл-маган, денг, хўпми?

— Ростдан борасан, ўлмайсан!

— Раҳ-мат! Боғ-ғимиз-ни соғ-ғиндим.
Хушвақтовни тош устига ётқазиб қўйдим.

— Иҳ! Лекин, оғ-рияпти... Ўртоқ лей-те-
нант, осмон-ни қаранг. Мени чор-ла-япти.
Гўзал-а!

Осмонга боқдим. Қоп-қора булут.

— Ҳа, ҳа. Осмон гўзал!

— Омон бўл-линг. Фақат мен-ни кеч-
чиринглар. Уйга қай-толма-ганим учун...

Жанг оғир бўлди. Етти кишини йўқот-
дик. Ҳаммаси хаёлимда гавдаланяпти:
Хушвақтовдан бошқа оддий аскарлар Тўх-
тасинов, Шомиллов, Тешабоев, Хуррамов,
сержант Аҳмедов, катта сержант Турсунов.

Хаёлимни улар хотираси эгаллаган.

биётшунос бўлмоқчи эди. Кела-
жак ҳақида кўп гурунқ қилишарди.
Эҳ, бир кам дунё! Негадир кўзим
ёшланяпти.

Жангга киришдан олдин:

— Ийигитлар, биз бор эканмиз,
душманингиз қадам босишига
ҳам йўл қўймаймиз, — деганди
Хушвақтов.

— Ҳаммамиз қаҳрамон бўлиб
қайтамиз, — дея қўшилган эди Тўх-
тасинов.

— Биз ҳақимизда ҳам кино ола-
сиз-а? — жилмайганча гапни илиб кетар эди
Хушвақтов.

— Албатта!

— Бош қаҳрамон ўзим бўламан. Мени теле-
визорда кўриб, онам хурсанд бўладилар!

— Майли, бош роль сеники, Хушвақтов!

Фақат ҳаммамиз, омон қайтсак бас!

— Келинлар, омон қайтишга онт ичамиз, —
дерди кичик сержант Аҳмедов.

— Ҳамманг эсон-омон қайтишинг шарт.
Чунки ҳамманг фильмда бош ролни ижро эта-
сан! Қайтмаслик ҳақида ўйлаш мумкин эмас.

Бу — буйруқ! — деган эдим ўшанда жиддий.

— Хўп бўлади, катта лейтенант! — деган
ваъда баравар янграган эди.



қизалогим кулиб қараб турибди. Уйга бор-
маганимга, уларни кўрмаганимга ҳам анча
бўлибди. Ҳали газандалардан қутулсак, ал-
батта, фарзандларимни шаҳар айлантиргани
элтаман. Сокин хиёбонда оилавий сайр қила-
миз. Тинчликка нима етсин!..

“Тревога!”

Шайлик. Бошланди. Бостириб келишяпти...
Яна отишма бошланди. Бехато урдим. Босқин-
чининг жазоси шу!

Ватан! Сен ўғлининг омон қайтишини инти-
зор кутиб, эшикка термиллаётган Онасан!

...Шу пайт биқинимда чидаб бўлмас
оғриқ турди. Гўё ўпирилиб кетгандек. Ўша
жойга қўл теккизсам, иссиқ қон. Ҳолсизлана

TOSHKENT HAQIQATI
ТАШКЕНТСКАЯ ПРАВДА

Muassis:

TOSHKENT
VILOYATI
HOKIMLIGI

“Toshkent haqiqati” va
“Tashkentskaya pravda”
gazetalarini tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV
(tahrir hay'ati raisi)

Abdusamad NOSIROV

Ummat MIRZAQULOV

G'afurjon MUHAMEDOV

Sayyora FAYZIYEVA

Abduvosit ABDURAZZOQOV

Mahmud TOIR

Azamat MIRZAYEV

Uskenboy ATEMOV

Abdulla XURSANOV

Otabek SULTONBEKOV

Kumush EGAMBERDIYEVA

Olimjon BEGALIYEV

Sergey MUTIN

Bosh muharrir o'rinbosari,
nashr uchun mas'ul:
Suhrobjon SADIROV

Mas'ul kotib:
Alloma AZIZOVA

Navbatchi:
To'xtamurod HASANBOYEV

Ekspeditor:
Behruz NURBOBOYEV

Qabulxona:
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:
(55) 520-04-10

Mas'ul kotib:
(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:
(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:
(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthqiqati@uimail.uz

Bosishga topshirish vaqti — 20:00.

Bosishga topshirildi — 20:00.

Nashr ko'rsatkichi — 205.

Buyurtma G-135.

7 386 nusxada chop etildi.

Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A-2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda
03-001 raqami bilan
ro'yxatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi
ofisimiz: Bektemir tumani,

Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta «Toshkent haqiqati»
tahririyati kompyuter markazida
terildi va Tahir Mahmudxo'jayev
tomonidan sahifalandi.

Haftaning
chorshanba va shanba
kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida bosildi.

Korxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.